

Date: 3rd May-2026

O'QUVCHILARNI MILLIY HUNARMANDCHILIK ASOSIDA
MEHNATSEVARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Andijon davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası P.f.b.f.d professori

Komilova Xurshida Toxirovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

talabasi **To'xtamurodova Ominaxon Botirjon qizi**

Email: ominaxontoxtamurodova09@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida milliy hunarmandchilik an'analari orqali mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligining yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, ustoz-shogird an'alarining zamonaviy ta'lim bilan uyg'unligi hamda mehnat tarbiyasining psixologik jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, milliy qadriyatlar asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni qaror toptirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: milliy hunarmandchilik, mehnatsevarlik, tarbiya, xalq pedagogikasi, qadriyat, ustoz-shogird, amaliy san'at, kasb-hunar.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические возможности формирования трудолюбия у учащихся общеобразовательных школ посредством национальных ремесленных традиций. В статье анализируется роль народного искусства и ремесел в воспитании подрастающего поколения, сочетание традиций «мастер-ученик» с современным образованием, а также психологические аспекты трудового воспитания. Также даны практические рекомендации по профессиональной ориентации учащихся на основе национальных ценностей и формированию у них позитивного отношения к труду.

Ключевые слова: национальное ремесло, трудолюбие, воспитание, народная педагогика, ценность, учитель-ученик, прикладное искусство, профессия.

Annotation: The article examines the pedagogical possibilities of forming diligence in secondary school students through the national traditions of crafts. The article analyzes the role of folk arts and crafts in raising the younger generation, the combination of the "master-apprentice" tradition with modern education, as well as the psychological aspects of labor education. Practical recommendations are also given on orienting students towards a profession based on national values and forming a positive attitude towards work in them.

Keywords: national crafts, hard work, education, folk pedagogy, value, teacher-student, applied art, profession.



Date: 3rd May-2026

Kirish

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zero, har qanday jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy yuksalishi uning a'zolari, ayniqsa, yoshlarning mehnatsevarlik darajasiga bog'liq. Ayniqsa, o'quvchilarni nazariy bilimlar bilan cheklantirmasdan, ularni amaliy mehnat faoliyatiga, xususan, ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan milliy hunarmandchilikka jalb etish orqali tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Hunarmandchilikning kelib chiqishi nafaqat moddiy ehtiyojlarni qondirish, balki insonning go'zallikka bo'lgan intilishi va intellektual salohiyatining amaliy ifodasi sifatida shakllanib, asrlar davomida xalqning turmush tarzi, madaniyati va ma'naviyatini o'zida mujassam etgan buyuk merosga aylandi. Hunarmandchilik – milliy-an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi va mahsulotlar tayyorlovchilarning kasblarning umumiy nomi.

Hunarmandchilik insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdgan, turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (kulollik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, rixtagarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, taqachilik, tunukasozlik va boshqalar)ga ajraldi. Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, mas, paxta va pilla bor yerda to'qimachilik, sifatli xomashyo bor yerda kulolchilik, jun va teri ko'p yerda to'qimachilik va ko'nchilik, shunga qarab kosibchilik, o'rmonlar ko'p yerda yog'ochsozlik, ma'danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo'ylarida kemasozlik va boshqa rivoj topgan. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning 3 turi shakllangan: 1) uy hunarmandchiligi; 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik; 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik. Uy hunarmandchiligi kapitalizmga qadar bo'lgan davrlarda hunarmandchilikning eng ko'p tarqalgan turi bo'ldi. Shaharlar rivoji buyurtma bilan hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlash va bozorga hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarishning jadal o'sishi bilan uzviy bog'liq. Hunarmandchilik mahsulotlari tovarga aylandi, tovar ayirboshlash uchun ishlab chiqariddi. Davr taqozosi bilan hunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli mahsulotlar tayyorlash bo'yicha ixtisoslasha brogan.

Prezidentimizning: "Hunari bor inson hech qachon kam bo'lmaydi, o'ziga ham, jamiyatga ham naf keltira oladi", — degan o'gitlari bugungi kun o'quvchi-yoshlari uchun hayotiy shiorga aylanishi lozim. Aynan shu bois, maktab ostonasidan boshlab o'quvchilarga kulolchilik, duradgorlik yoki kashtachilik kabi hunarlarni o'rgatish ularda mustaqil hayotga tayyorgarlik va mehnatsevarlik tuyg'usini uyg'otadi.⁷

⁷ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – 464 b.



Date: 3rd May-2026

1-rasm



Kulochilik ishlaridan namunalar



Yuqorida keltirib o'tgan milliy hunarmandchilik turlari o'quvchi shaxsining shakllanishida o'ziga xos "tarbiya maktabi" vazifasini o'taydi. Zero, har bir hunar yo'nalishi bolada muayyan psixologik va axloqiy sifatlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi:

Kulochilik — vazminlik va nafosat timsoli. O'g'il bolalar uchun ko'proq mos keladigan hunarmandchilik turlaridan biri hisoblanib, loy bilan ishlash jarayoni o'quvchidan yuqori darajadagi xotirjamlik talab etadi. Oddiy tuproqdan nafis buyum yaratish bosqichlarida bola shoshqaloqlikdan tiyilishni, har bir harakatni o'bosishni o'rganadi. Bu esa o'smir yoshdagi bolalarda uchraydigan hissiy qo'zg'aluvchanlikni jilovlashga va ularda estetik nafosat hissini o'stirishga xizmat qiladi.

Duradgorlik — aniqlik va intizom poydevori. Yog'ochga ishlov berishda millimetrning ham o'rne muhimligi sababli, o'quvchi hisob-kitobga va mas'uliyatga odatlanadi. Reja asosida ishlash, asboblarni tartib bilan ishlatish va ish joyini ozoda tutish ko'nikmalari bolada qat'iy intizomni shakllantiradi. Bu jarayonda bola har qanday ishning natijasi puxta reja va tartibga bog'liq ekanligini amalda anglab yetadi.

Kashtachilik — sabr-toqat va badiiy did asosi. Qiz bolalarga mos hunar turlaridan va bu judayam qizlarni qiziqtiradigan hunarlardan biri hisoblanadi. Milliy kashtachilikning murakkab naqshlarini chizish va ularni igna bilan tikish oylar davomida davom etadigan mashaqqatli mehnatni talab qiladi. Bu mehnat o'quvchining irodasini toblaydi, uni boshlagan ishini oxiriga yetkazishga, mayda detallarga e'tiborli bo'lishga o'rgatadi. Ranglar mutanosibligini tanlash jarayonida esa bolaning dunyoqarashi kengayib, unda go'zallikni his qilish va yaratish qobiliyati — badiiy didi rivojlanadi.



Date: 3rd May-2026

2-rasm



Ustoz shogird an'analari. Hayotda yozilmagan, ammo unga amal qilinmasa, xunuk oqibatlariga olib keladigan qonunlar bor. Shulardan biri ustoz va shogirdlik munosabatlaridir. Xalq orasida ustoz va shogirdlik odobi, qadriyati, muloqot shartlari ana shunday yozilmagan qonunlar shaklida qadim yillardan buyon yashab, kamolga yetib, rivojlanib kelmoqda. Biron bir kasb egasi yo'qki, u ustoz ko'rib kamolga yetmagan bo'lsin. Ustoz va shogirdlik rishtalari juda nozik bo'lib, sal qaltis harakat qilinsa, uzilishi, keyin ulanganda ham tugun qolishi mumkin. Ana shunday hol yuz bermasligi uchun, avvalo, shogird ustoziga cheksiz mehr qo'yishi, ishonishi, uning har bir so'zi, xatti-harakatini tushunishi, unga rioya qilishi shart. Shogird ustozidan o'rganganlarini maromiga yetkazib, mustaqil ish boshlashdan oldin ustozini rozi qilib, duosini olishi ham odat tusiga kirgan. Duo olmagan shogirdlarning kosasi oqarmagan, biri ikki bo'lmagan. Rozilik olish ko'ngil obodligini ta'minlashdir. Shogirdidan ko'ngli to'lgan ustozgina unga chin dildan fотиha beradi. Xalqimiz "Ustoz ko'rmagan shogird - har maqomga yo'rg'alar» degan hikmatli iborani bejiz to'qimagan. Hunarmandchilikni ham o'quvchilarga o'rgatishda ko'p hollarda ustoz shogird an'analaridan foydalanilmoqda. Darhaqiqat, qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar ustoz qo'rmagan shogird o'sha sohaga oid tartib-qoidalarni, maromni, alohida yo'nalishni bilmasligi mumkin. Bu esa o'z faoliyati jarayonida bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Qadimdan ustoz-shogirdlik an'analarida ustoz nafaqat shogirdiga yo'l-yo'riq, ko'rsatma beribgina qolmay, o'z navbatida, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o'zidan keyin ish-tajribani, bilim va mahoratini avloddan-avlodga o'tishiga imkoniyat yaratgan.

Ustoz-shogird an'analarida quyidagi pedagogik tamoyillar muhim o'rin tutadi:

-onglilik va faollik, ya'ni egallayotgan u yoki bu faoliyatning o'ziga xos jihatlari, mohiyatini ongli tarzda to'liq anglab yetish, uning istiqboli va ravnaqi yo'lida faollik bilan harakat qilish;

-ilm-fanning sir-asrorlarini egallashda puxtalik;

ta'lim-tarbiyaning turmush, hayot bilan chambarchas bog'liqligini inobatga olish; mustaqillikka, ijodiy izlanishga yo'naltirib borishda nazariy bilimlarning amaliyot bilan bog'liqligini hisobga olish;

-o'qitish, tarbiyalash mazmuni va shogirdlik bosqichlarining izchillik bilan belgilab qo'yilgan aniq mantiqiy tartibga ega bo'lishi;

Date: 3rd May-2026

-shogirdning yoshi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish.⁸

Oila va maktab hamkorligi. O'quvchilarda milliy hunarmandchilikka qiziqish uyg'otish va ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda yana bir muhim omil maktab va oila o'rtasidagi uzviy bog'liqlikdir. Tarbiya jarayonida maktab nazariy va amaliy poydevorni qo'ysa, oila ushbu ko'nikmalarning hayotiy ehtiyojga aylanishini ta'minlaydi. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejiz aytilmagan. Agar oilada ota-onalar milliy hunarmandchilik buyumlaridan foydalansalar, uydagi jihozlarga e'tiborli bo'lsalar va o'zlari ham biror foydali mehnat bilan band bo'lsalar, farzandda mehnatga nisbatan tabiiy hurmat shakllanadi. Maktabda o'rganilgan duradgorlik yoki kashtachilik ko'nikmalari oilada ota-ona tomonidan rag'batlantirilsa, o'quvchining o'z mehnatiga bo'lgan ishonchi ortadi. Oila va maktab hamkorligida "mahallabay" ishlash tizimi ham muhim o'rin tutadi. Mahalladagi mohir hunarmandlar, ayniqsa, ota-onalar orasidagi usta-hunarmandlarni maktabdagi "Texnologiya" darslariga taklif etish lozim. Bunday hamkorlik o'quvchida "bu hunarni mening yaqinim ham bilar ekan" degan faxr tuyg'usini uyg'otadi va darsning jonli o'tishini ta'minlaydi.⁹

Muammo: Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarni mehnatga tayyorlashda bir qator tizimli muammolar kuzatilmoqda. Birinchidan, zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli o'yinlarga bo'lgan haddan tashqari bog'liqlik yoshlarda jismoniy mehnatga nisbatan bepisandlik yoki loqaydlik munosabatini shakllantirmoqda. Ikkinchidan, maktablardagi "Texnologiya" darslari ko'p hollarda faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolayotgani, moddiy-texnik bazaning yetishmasligi va an'anaviy hunarmandchilik turlarining zamonaviy metodika bilan yetarli darajada bog'lanmagani o'quvchilarning qiziqishini so'ndirmoqda. Natijada, o'quvchi shaxsida mehnatsevarlik ko'nikmasi real hayotiy ehtiyojga aylanmay qolmoqda.

Yechim: Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi pedagogik yechimlarni amalga oshirish taklif etiladi:

"Interaktiv hunarmandchilik" metodikasini joriy etish: Milliy hunarlarni o'rgatishda faqat an'anaviy usullar bilan cheklanmay, zamonaviy dizayn va AKT imkoniyatlaridan foydalanish (masalan, milliy naqshlarni kompyuterda modellashtirish va so'ngra amalda qo'llash) o'quvchilarning qiziqishini oshiradi.

"Mahallabay" ustoz-shogird tizimini yo'lga qo'yish: Maktablarni hududdagi mohir hunarmandlar va usta-shogird maktablari bilan rasmiy ravishda bog'lash. Bu orqali o'quvchilar darsda olgan bilimlarini bevosita ustaxonalar muhitida amaliy ko'nikmaga aylantirish imkoniga ega bo'ladilar.

Mehnat natijasini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish: Maktablarda o'quvchilar yaratgan hunarmandchilik mahsulotlarining "Maktab yarmarkalari"ni tashkil etish. O'quvchi o'z mehnati mahsulining jamiyatga foyda keltirayotganini va moddiy rag'bat berayotganini ko'rsa, unda mehnatsevarlikka bo'lgan motivatsiya keskin ortadi.

⁸D. Malikova. Sharq mamlakatlarida "ustoz-shogird"lik an'analarning shakllanishi va rivojlanishi. Maqola.Science and Education Scientific Journal / ISSN 2181-0842 Aprel 2022

⁹ Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish. – Toshkent: "Fan", 1999.



Date: 3rd May-2026

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, o‘quvchilarni milliy hunarmandchilik asosida mehnatsevarlikka tarbiyalash shunchaki dars jarayoni emas, balki jamiyatning ma’naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan strategik vazifadir. Milliy hunarlarimiz bo‘lgan kulolchilik, duradgorlik va kashtachilik kabi yo‘nalishlar orqali ta’lim berish o‘quvchilarning shaxsiy kamolotida muhim natijalarni beradi. Birinchidan, o‘quvchilarda kichik yoshidan amaliy mehnat ko‘nikmalarining shakllanishi ularni kelajakda kasb-hunar tanlashga, tadbirkorlikka va o‘zini-o‘zi mustaqil band qilishga tayyorlaydi. Ikkinchidan, milliy hunarmandchilik turlari o‘quvchining ichki dunyosini boyitib, ularda sabr-toqat, vazminlik, intizom va estetik did kabi insoniy fazilatlarni toblaydi. Uchinchidan, hunar o‘rganish jarayonida o‘quvchi xalqimizning ko‘p asrlik an‘analari bilan bevosita muloqotga kirishadi, bu esa ularda vatanparvarlik va milliy merosimizga nisbatan g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi. To‘rtinchidan, maktab va oila hamkorligi o‘quvchining mehnatga bo‘lgan qiziqishini barqarorlashtiradi. Oila muhitidagi qo‘llab-quvvatlash va maktabdagi pedagogik mahorat birlashganda, mehnatsevarlik o‘quvchi uchun shunchaki majburiyat emas, balki yashash tarziga aylanadi. Shuni xulosa qilish mumkinki, ta’lim tizimida xalq pedagogikasi va “ustoz-shogird” an‘analaridan keng foydalanish Yangi O‘zbekistonning intellektual va jismoniy jihatdan sog‘lom avlodini shakllantirishda eng muhim pedagogik vositalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov A. O‘zbekiston xalq hunarmandchiligi. Toshkent "Ma'naviyat" nashriyoti (2019)
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.
3. Malikova D. Sharq mamlakatlarida “ustoz-shogird”lik an‘analarining shakllanishi va rivojlanishi. Maqola.Science and Education Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022
4. Inomova M. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish. – Toshkent: “Fan”, 1999.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Hunarmandchilikni rivojlantirish va hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida (Farmon). Prezident matbuot xizmati. 2017
6. Makkarimov. A. xusainova. G. “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” darslik fan. 2023 y.

